

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN GEODEZIYA FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Geodeziya fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Geodeziya

1. Geodeziyaning tarixi va kelajak istiqbollarini bilish.
2. Geodezik asboblarni yordamida burchaklar o‘lchash.
3. Geodezik koordinatalar tizimini bilish.
4. Geodezik koordinatalar va geografik koordinatalarni aniqlash.
5. Masshtab elementlarini bilish.
6. Joy chiziqlarini oriyentirlash.
7. Joy elementlari va relyefini kart va planlarda tasvirlash.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Geodeziya	Geodeziya bo'limida yer va hududlarni aniqlik bilan o'lchash, xaritalash va geoinformatsion ma'lumotlarni yig'ish jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida geodezik asbob-uskunalaridan foydalanish, koordinatalar tizimlarini va topografik ma'lumotlarni tahlil qilish, yer uchastkalari va transport infratuzilmasi obyektlarini kartografik hujjatlashtirish, geodeziya ishlarini loyihalash va amalga oshirishda texnologik va normativ talablarni hisobga olish, o'lchov natijalarini qayta ishlash va ulardan transport-logistika operatsiyalarini rejalashtirishda foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion geodezik metodlar va dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, geodeziya bo'limining barqaror va samarali ishlashini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	22.5 %	9 ta
2	Geodeziyada qo'llaniladigan koordinatalar sistemasi	Geodeziyada qo'llaniladigan koordinatalar tizimi bo'limida yer va hududlarni aniqlik bilan o'lchash, joylashuvni belgilash va xaritalash jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida turli koordinatalar tizimlarini (geografik, kartografik, UTM va lokal tizimlar) o'rganish, ularning xususiyatlari va transformatsiya usullarini tahlil qilish, geodezik asbob-uskunalar va dasturiy vositalarda koordinatalarni aniqlash va qayta ishlash amaliyotini o'zlashtirish, o'lchov natijalarini transport-logistika va geoinformatsion tizimlarda qo'llash, normativ va texnologik talablarni hisobga olgan holda koordinatalar tizimlaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion metod va vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, geodeziya faoliyatining aniqlik, barqarorlik va samaradorligini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.	45 %	18 ta
3	Geodeziyada burchak o'lchash asboblari	Geodeziyada burchak o'lchash asboblari bo'limida yer va hududlarni aniqlik bilan o'lchash va xaritalash jarayonlarini samarali tashkil etish maqsadida turli burchak o'lchash asboblari	32,5 %	13 ta

		(teodolit, sektant, elektron teodolit, total stansiya va boshqalar)ning ishlash prinsiplari va texnik xususiyatlarini o'rganish, asboblarni sozlash va kalibrlash, burchak o'lchash jarayonlarini amalga oshirish, o'lchov natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish, geodezik va transport-logistika operatsiyalarida aniqlikni ta'minlash, normativ va texnologik talablarni hisobga olgan holda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, innovatsion geodezik metod va dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish, geodeziya ishlarining aniqlik, barqarorlik va samaradorligini ta'minlash uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish lozim.		
--	--	--	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarini eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	45 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	27,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	27,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ассур В.А, Кутузов М.Н, Муравин М.М. Высшая геодезия. М., Недра, 1989.
2. Большаков В.Д и др. Радиогеодезические и электрооптические измерения. М., Недра, 1985.
3. Nazirov A.N. Geodeziya. T, O'kituvchi, 1984.
4. Мубораков Х.М, З.Д.Охунов, М.Х.Пармонов. Инженерлик геодезияси. Т. ТИКХМИИ, 1990.
5. Ю.К.Неумывакин, М.И.Перский. Геодезическое обеспечение землеустроительных и кадастровых работ. М., Картгеоцентр- Геодезиздат., 1996.
6. F.M.Raximboev, M.Xamidov. Qishloq xo'jalik melioratsiyasi. T. "O'zbekiston", 1996.
7. Н.В.Н.Яковлев. Высшая геодезия. М., Недра, 1989.
8. Nurmatov E.X., O'tanov O'., Geodeziya. T., O'zbekiston, 2002.
9. Muborakov X.M., Axmedov S. Geodeziya va kartografiya. Toshkent, 2002